



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 398 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” aining asisii faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkinjonovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari	260
Raximova Maftuna Axmadjon qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foydani taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish masalalari	264
Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li	
O‘zbekiston qonunchiligida raqamli transformatsiya jarayonida elektron to‘lov kartalarini soxtalashtirishni jinoyatlashtirish	276
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
Mamlakatimizda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari.....	281
Miyassarov Davron Abdurashid o‘g‘li	
Validation of the dutch eating behaviour questionnaire (DEBQ) in a sample of uzbek women.....	285
Khursana Usmanova, Dr Muhammad Bilal, Dilafuz Qo‘chqorova	
Iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini o‘ziga xos jihatlari	295
Nabiyev Bexzod Shavkatovich, Bayboboeva Firuza Nabijonovna	
Davlat qarz siyosatini optimallashtirishda islomiy moliya instrumentlarining qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishlari	299
Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	
Роль институциональных структур фондового рынка в обеспечении финансовой стабильности.....	305
Камилова Севара Анваровна	
The Impact of Digitalization on the Management System in the Entrepreneurial Environment of Uzbekistan.....	309
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
China’s Investment Strategy in Uzbekistan: Sectoral Trends and Strategic Implications (2013–2024).....	313
Maftuna Nuriddinova	
Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati	319
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Raqamli boshqaruvning afzalliklari va uni rivojlantirish istiqbollari	324
Xolbayeva Marg‘uba Qazoqboyevna	
Korporativ boshqaruvning nazariy asoslari: O‘zbekistonda qo‘llanish imkoniyatlari.....	328
Jumayeva Guzal Sherxon qizi	
Audit organizations in Uzbekistan	332
Razzaqov Jasur Xamraboevich, Yaqubov Matrasul Mavlonberdiyevich, Sabirova Nodira Komil qizi	
Xorijiy investitsiyalarning turlari va xususiyatlari	337
Gofurov Doston Boxromovich	
Mahalliy budjet mablag‘larining samaradorligini oshirishda auditning o‘rni.....	341
Primova Shaxnoza Komiljonovna	
Модели управления государственными финансами в зарубежных странах.....	345
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
O‘zbekistonning sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishi: yashil o‘sish indikatorlari tahlili	352
Hakimov Anvarjon Abdulloyevich	
Innovation management in the education system: practical challenges, international experience, and effective strategies based on the example of Uzbekistan.....	356
Imomov Inomiddin Abdulxamidovich, Egamberdiyev Farxod Botirovich	
Трансформация энергетического комплекса Узбекистана: текущее состояние и перспективы развития	363
Хмель Е.В., Мирджалилова Д.Ш., Дерюгина Е.А., Лозовская Н.А.	



Improving the efficiency of personnel management and optimizing labor costs in Sam Glass LLC.....	368
Musayeva Shoirazimovna, Agzamov Avazkhon Talgatovich	
Interactive design and museum management: enhancing guided tours through IOT and virtual solutions.....	374
Ibrokhimova Aziza Abbasovna	
Hududlar investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	379
Imomova Kamola Novfal qizi	
"Innovatsion usulda baliq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari (Sirdaryo tumani misolida)"	385
Bo'ltakov Sardor Oqbo'ta o'g'li	
Bank filial tarmoqlari samaradorligini baholashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekiston banklari amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	392
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	



BANK FILIAL TARMOQLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNDAN O'ZBEKISTON BANKLARI AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li

“Trastbank” XAB Yakkasaroy

bank xizmatlari ofisi yetakchi mutaxassisi,

Annotatsiya: Mazkur maqolada AQSh tijorat banklarining filial tarmoqlari rivojlanish tendensiyalari hamda raqamli bank xizmatlari integratsiyasining samaradorlikka ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi. 2017–2023-yillar statistik ma'lumotlari asosida banklar soni, filial tarmoqlari, aktivlar va kapital rentabelligi, harakatsiz aktivlar ulushi hamda sof foiz marjasi kabi asosiy ko'rsatkichlar o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, banklar soni qisqarishiga qaramay, AQSh tijorat banklari filial tarmoqlarining keng miqyosini saqlab qolmoqda va ularni raqamli xizmatlar bilan uyg'unlashtirishga e'tibor qaratmoqda. Gibridd filial modeli mijozlar ehtiyojlarini qondirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tajriba O'zbekiston bank tizimida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etishda qo'llash uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, filial tarmog'i, raqamli bank, gibridd model, bank samaradorligi, AQSh bank tizimi, ROA, ROE, sof foiz marjasi, moliyaviy xavf.

Abstract: This article scientifically analyzes the development trends of branch networks of US commercial banks and the impact of digital banking integration on efficiency. Based on statistical data for 2017–2023, key indicators such as the number of banks, branch networks, return on assets and capital, share of non-current assets, and net interest margin were studied. The results of the study showed that, despite the reduction in the number of banks, US commercial banks maintain a large scale of branch networks and focus on integrating them with digital services. The hybrid branch model is of great importance in meeting customer needs, reducing financial risks, and ensuring long-term sustainable development. This experience is of practical importance for application in the introduction of modern management mechanisms in the banking system of Uzbekistan.

Key words: commercial banks, branch network, digital bank, hybrid model, bank efficiency, US banking system, ROA, ROE, net interest margin, financial risk.

Аннотация: В данной статье научно проанализированы тенденции развития филиальной сети коммерческих банков США и влияние интеграции цифрового банкинга на эффективность. На основе статистических данных за 2017–2023 годы изучены такие ключевые показатели, как количество банков, филиальная сеть, рентабельность активов и капитала, доля внеоборотных активов и чистая процентная маржа. Результаты исследования показали, что, несмотря на сокращение числа банков, коммерческие банки США сохраняют большую масштабность филиальной сети и уделяют особое внимание интеграции ее с цифровыми сервисами. Гибридная модель филиалов имеет большое значение для удовлетворения потребностей клиентов, снижения финансовых рисков и обеспечения долгосрочного устойчивого развития. Данный опыт имеет практическое значение для применения при внедрении современных механизмов управления в банковскую систему Узбекистана.

Ключевые слова: коммерческие банки, филиальная сеть, цифровой банк, гибридная модель, эффективность банка, банковская система США, рентабельность активов (ROA), рентабельность собственного капитала (ROE), чистая процентная маржа, финансовый риск.



KIRISH

Bank ishi va bank faoliyati dunyodagi murakkab sohalardan bo'lishi bilan birga, har qanday davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Banklar iqtisodiyotning sanoat, qishloq xo'jaligi, aholiga xizmat ko'rsatish va boshqa shu kabi tarmoqlarining asosiy moliyalashtirish manbai bo'lib xizmat qiladi. Tijorat banklari mustaqil tijorat tashkiloti sifatida moliyaviy resurslarni optimal taqsimlash va mijozlarga turli bank xizmatlarini ko'rsatish orqali daromad va foyda oladi. Bank mijozlaridan uzoq muddatga depozitlarni jalb qilish va uni moliyaviy resurslarga ehtiyoji bo'lgan sub'ektlarga tavakkalchilik bilan taqdim etadi. Ushbu jarayonlar banklar filiallari orqali amalga oshirilish zaruratini keltirib chiqaradi, ya'ni bankning xizmatlari va mahsulotlari filial tarmoqlari orqali mijozlarga taqdim etiladi.

Jahonda raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi banklarning filial tarmoqlari samaradorligi va rentabelligi o'rtasida davom etayotgan munozaralarni yanada kuchaytirmoqda. Xususan, yirik filial tarmog'iga ega banklar AQSh va raqamli bankingni tezroq kirib borayotgan Yevropa Ittifoqi davlatlari o'zaro qarama-qarshi yo'nalishga ega bo'lsada, ammo ularning rivojlanish istiqbollari borasidagi yo'nalishlarini tushunish murakkab emas.

Xalqaro amaliyotda raqamli filiallar va an'anaviy filiallarning kuchli tomonlarini birlashtirgan "gibrid" bank filial modellariidan foydalanilmoqda. Bunday filial modeli raqamli kanallarning qulayligi va samaradorligini qo'llab-quvvatlaydi, shu bilan birga an'anaviy bank filiallari orqali bank xizmatlari va murakkab operatsiyalari amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda mijozlarning talabi "gibrid" modelda birlamchi o'ringa chiqadi. Tijorat banklari raqamli platformalar (ilovalar) orqali xizmatlar, filiallarda sensorli ekran va sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan bank xizmatlari kabi innovatsion xizmatlarni taklif etmoqda.

Banklarning filial tarmoqlari operatsion xarajatlar talab qilishi sababli an'anaviy ravishda xarajat markazlari sifatida qaraladi. Banklarning filiallari mijozlarga xizmat ko'rsatish va munosabatlarni o'rnatish nuqtai nazaridan, ayniqsa murakkab bank operatsiyalari yoki maslahatga yo'naltirilgan xizmatlarda muhim ahamiyatga kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank ishi nazariyasi va tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish masalalari O'zbekiston va xalqaro miqyosda keng o'rganilgan. Jumladan, Azizov U. va hamkorlari bank faoliyatining moliyaviy mexanizmlari, resurslarni optimal taqsimlash hamda bank xizmatlari ko'rsatish jarayonida yuzaga keladigan tavakkalchiliklarni chuqur yoritib berganlar [1]. Mazkur asar bank tizimining nazariy asoslarini, xususan, tijorat banklari faoliyatini samarali tashkil etish yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Bank kreditlash jarayonlarida garov ta'minotini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega. Abdikarimova D. banklar garov ta'minotini baholashning zarurligi, asosiy tamoyillari va amaliy takomillashtirish yo'llarini ilmiy jihatdan o'rgangan [3; 4]. Bu ishlar tijorat banklarining kredit risklarini kamaytirish, garov mexanizmini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Banklar faoliyatining samaradorligini oshirish yo'nalishlari ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Bektemirov A., Malikova D. va Axmedov H. tijorat banklari daromad bazasini kengaytirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish orqali samaradorlikni oshirish masalalariga e'tibor qaratadilar [5]. Berdiyarov B. T. o'z tadqiqotlarida tijorat banklarining likvidligini ta'minlash, foiz siyosatini takomillashtirish hamda to'lov qobiliyatini mustahkamlash masalalarini tahlil qilib, bank moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan [6; 7].

Milliy valyuta kursi barqarorligi ham tijorat banklari faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi. Boboqulov T. I. ushbu masalani o'rganib, valyuta kursining beqarorligi bank tizimi likvidligi va kredit siyosatiga qanday ta'sir etishini tahlil qilgan [8].

Shuningdek, kichik biznes subyektlarining kredit to'lov qobiliyatini baholash, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash ham bank faoliyatining muhim yo'nalishi sifatida o'rganilgan. Bu borada Alimardonov I. M. kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va kredit risklarini baholashning takomillashtirish usullarini taklif etadi [2].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda kredit risklarini kamaytirish, garov ta'minoti mexanizmini kuchaytirish, likvidlikni ta'minlash, foiz siyosatini takomillashtirish va raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha nazariy hamda amaliy asoslarni yaratadi. Bu yondashuvlar AQSh bank tizimida kuzatilayotgan raqamli va gibrid filial modeli rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishda muhim ilmiy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot AQSh tijorat banklari faoliyatining samaradorligini baholash, ularning filial tarmoqlarini rivojlantirish hamda raqamli bank xizmatlarini joriy etishning iqtisodiy natijalarini o'rganishga qaratildi.



Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini ta'minlash maqsadida quyidagi ilmiy yondashuvlar, usullar va manbalar majmuasi qo'llanildi:

Qiyosiy tahlil metodi – AQSh tijorat banklari faoliyati boshqa rivojlangan davlatlar bank tizimi ko'rsatkichlari bilan taqqoslandi. Bu usul banklar soni, filial tarmoqlari va ularning rivojlanish tendensiyalaridagi farqlarni aniqlashga yordam berdi.

Dinamik tahlil metodi – 2017–2023-yillar oralig'ida banklarning aktivlar va kapital rentabelligi (ROA, ROE), sof foiz marjasi, harakatsiz aktivlar ulushi kabi ko'rsatkichlar yilma-yil o'zgarishi o'rganildi.

Grafik tahlil metodi – Banklar faoliyatidagi asosiy ko'rsatkichlar chizmalar, jadvallar va grafiklar orqali vizuallashtirildi.

Maqsadli kuzatuv va ekspert tahlili – Raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi, "gibrid" filial modeli va ularning iqtisodiy samaradorligi mutaxassislar xulosalari asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Rivojlangan davlatlar tajribasini tadqiq etishda AQSh ning bank tizimini o'rganish va tahlil qilish asosida ilg'or tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dunyoda AQSh banklar bo'yicha yirik davlat hisoblanadi hamda banklarning filial tarmoqlari bo'yicha ham yetakchilik qiladi.

1-jadval. Dunyo davlatlari kesimida tijorat banklar soni o'zgarishi¹

Davlat nomi	01.01.17	01.01.18	01.01.19	01.01.20	01.01.21	2021-yilda 2017-yilga nisbatan o'zgarishi
AQSh	5080	4886	4686	4488	4344	-736
Rossiya	575	517	440	402	366	-209
Buyuk Britaniya	312	313	321	311	313	1
Fransiya	276	258	259	259	258	-18
Germaniya	263	263	267	259	257	-6
Shveysariya	261	253	248	246	243	-18
Italiya	270	249	237	229	223	-47
Xitoy	190	190	192	193	192	2
Gong kong	156	155	152	164	161	5
Xindiston	157	162	161	161	151	-6

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, AQSh dunyoda banklar soni bo'yicha yetakchi bo'lib, 2021-yil 1-yanvar holatiga 4 344 tani tashkil etgan va tahlil davrida 736 taga kamaygan bo'lishiga qaramasdan yetakchilik qilmoqda. Rossiyada banklar soni 209 taga kamaygan bo'lsa, Buyuk Britaniya bank tizimida banklar soni deyarli barqaror bo'lib sezilarli o'zgarish kuzatilmagan.

1 <https://www.helgilibrary.com/indicators/number-of-banks/> internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.




1-rasm. AQSh da filial tarmog'i bo'yicha 10 ta yirik tijorat banki filiallari soni², (2023-yil yakuniga 30-iyun holatiga)

AQSh da JP Morgan Chase bank 2023-yil 30-iyun holatiga filiallar soni bo'yicha yetakchi bank bo'lib, uning butun mamlakat bo'ylab filiallari tarmog'i 5117 tani tashkil etgan. AQShda ikkinchi o'rinda 4521 ta filiali bilan Wells Fargo Bank bormoqda va uchinchi o'rinda 4029 ta filiali bilan Bank of Amerika bormoqda. Xalqaro taqqoslash uchun, JP Morgan Chase bank filiallari soni bo'yicha yetakchi Britaniya bank tizimining yetakchi bo'lgan Lloyds Bank ning filiallari 739 taga nisbatan qariyb yetti baravar ortiqni tashkil etadi. Bugungi kunda Buyuk Britaniyada filial tarmoqlari bo'yicha yirik 3 ta Lloyds Bank ning 739 ta, Halifax bankda 553 ta, Bank of Scotland da 184 ta filiali mavjud.

AQSh bank tizimida 2023-yil mart oyida Silicon Valley Bank (SVB) AQShdagi yirikligi bo'yicha 16-o'rindagi bank, bir necha kun ichida bankrot bo'ldi. AQShda banklarning bankrotligini asosiy sababi sifatida . depozitlarning katta miqdorda chiqib ketishi bilan izohlanadi. AQSh bank tizimida katta miqdorda sug'urtalanmagan depozitlari va tijorat ko'chmas mulk bilan bog'liq muammolar boshqa tijorat banklarining barqarorligi ta'minlash borasida choralar ko'rishni talab qildi. Ushbu muammolar banklarda filiallar tarmog'ini doimiy tahlil qilish va ularning zaifliklarini baholash hamda doimiy nazoratni joriy etishni talab qilmoqda.

Bank faoliyatining samaradorligini baholash bank faoliyatining qanchalik samarali tashkil etilganligi, aktivlar va kapitaldan qanchalik foydalanishi kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Banklar faoliyatidagi ushbu muhim ko'rsatkichlar investorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

AQSh tajribasi asosida banklar faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashni ko'rib chiqamiz.



2-rasm. AQSh da tijorat banklari aktivlar va kapital rentabelligi ko'rsatkichlari o'zgarishi³, (yil yakuniga, foizda)

² <https://banks.data.fdic.gov/explore/historical/> internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

³ <https://banks.data.fdic.gov/explore/historical/> интернет сайты маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.



AQShda banklar faoliyati natijalarining eng muhim ko'rsatkichlaridan hisoblangan bank aktivlari (ROA) va kapitali rentabelligi (ROE) ko'rsatkichlari tahlilidan ko'rish mumkinki, 2018-2023-yillar davomida beqaror bo'lgan. Xususan, 2018-2020-yilgacha bo'lgan davrda ushbu samaradorlik ko'rsatkichlari pasaygan bo'lsa, 2020-2022-yillarda o'sgan va 2023 yilga kelib pasayish kuzatilgan. Tahlil davrida bank kapitali rentabelligi (ROE) 10,51 foizdan 10,74 foizgacha oshgan bo'lsa, banklarning aktivlar rentabelligi 1,19 foizda 1,01 foizgacha pasaygan. Buni banklarning sof foyda ko'rsatkichlari oshgan sharoitida bank aktivlarining kapitalga nisbatan yuqori sur'atda oshganligi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, AQSh banklar faoliyatida ishlamaydigan aktivlarning ulushining ortganligi ham sabab bo'lgan.



3-rasm. AQSh da tijorat banklarining harakatsiz aktivlari va hisobdan chiqarilgan kreditlar bo'yicha ko'rsatkichlari o'zgarishi⁴, (yil yakuniga, foiz hisobida)

AQSh bank tizimida tijorat banklarining harakatsiz aktivlari va hisobdan chiqarilgan kreditlar bo'yicha ko'rsatkichlari bo'yicha 2018-2019-yillarda kamayish tendensiyasi kuzatilgan. 2023-yilda AQSh bank tizimidagi ishlamaydigan (harakatsiz) aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 0,4 foizni tashkil etgan va ijobiy holat hisoblanadi. Ko'pgina rivojlanayotgan davlatlar bank tizimida banklarning harakatsiz aktivlari miqdori eng kamida 10 foizgacha tashkil etishi, banklar faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Koronavirus pandemiyasi AQSh bank tizimida ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatganligini tahlil davrida 2019-2020-yillarda hisobdan chiqarilgan kreditlarning aktivlardagi ulushi 0,13 foizgacha yetgan hamda ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 0,11 foizni tashkil etgan.

AQSh bank tizimidagi zaifliklarning saqlanib qolishi, foiz stavkalarini pasaytishi va bozordagi noaniqliklarning mavjudligi, shuningdek, ko'chmas mulk bozoridagi muammolar 2023-yilda banklar faoliyatiga salbiy ta'sirlarni yuzaga keltirdi. AQShda foiz stavkalar oshishi va banklardagi sug'urtalanmagan omonatlardan kelib chiqadigan katta likvidlik bosimi tufayli yirik banklarga nisbatan xatarlar saqlanib qolmoqda. Natijada banklarning foiz marja o'rsatkichlarini pasayishiga sabab bo'ldi.



4-rasm. AQSh da tijorat banklarining sof foizli marjasi va sof operatsion daromadning o'sishi o'zgarishi⁵, (yil yakuniga, foiz hisobida)

⁴ <https://banks.data.fdic.gov/explore/historical/> интернет сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

⁵ <https://banks.data.fdic.gov/explore/historical/> интернет сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.



AQSh banklarining sof foizli marjasi ko'rsatkichlari tahlil davrida beqaror bo'lgan va 2023-yilda 2018-yilga nisbatan (3,73 %) 0,34 foiz punktga kamayib 3,39 foizni tashkil etdi. Yuqorida ta'kidlanganidek, kreditlar foiz stavkalarining pasayishi va depozitlar foiz stavkalarining oshishi shartida banklarning sof foizli marja ko'rsatkichlarini pasayishiga olib kelgan. Tijorat banklarining sof operatsion daromadlari o'sish darajasi so'nggi ikki yilda operatsion daromadlarning qisqarishi hisobiga pasaygan va 2023 yilda -10,94 foiz pasayish kuzatilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari AQSh tijorat banklari faoliyatining so'nggi yillarda bir qator muhim xususiyatlarini namoyon qildi:

1. Banklar sonining qisqarishi: 2017–2021-yillarda AQSh tijorat banklari soni 5 080 tadan 4 344 taga kamaygan bo'lsa-da, filial tarmoqlarining keng miqyosini saqlab qolish hisobiga dunyo bo'yicha yetakchilikni davom ettirmoqda.

2. Filial tarmoqlari va gibril model: JP Morgan Chase, Wells Fargo va Bank of America kabi yirik banklar filial tarmoqlarini kengaytirish bilan birga, raqamli bank xizmatlarini jadal joriy etib, an'anaviy va raqamli xizmatlarning gibril modelini shakllantirmoqda.

3. Samaradorlik ko'rsatkichlari: 2018–2023-yillar davomida bank kapitali rentabelligi (ROE) 10,51 % dan 10,74 % gacha oshgan bo'lsa, aktivlar rentabelligi (ROA) 1,19 % dan 1,01 % gacha kamaygan. Sof foiz marjasi esa 3,73% dan 3,39% gacha pasaygan. Bu esa foiz stavkalarining o'zgarishi, sug'urtalanmagan depozitlar oqimi va bozor noaniqliklari bilan bog'liq.

4. Risk omillari: Silicon Valley Bank (SVB)ning bankrotligi bank tizimida likvidlik xatarlarini kuchaytirgan, sug'urtalanmagan omonatlar tufayli yuzaga keladigan likvidlik bosimini doimiy nazorat qilish zarurligini ko'rsatgan.

5. Raqamli bank xizmatlarining ta'siri: Mijozlarga xizmat ko'rsatishda mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosida shaxsiylashtirilgan maslahatlar va sensorli ekranlar kabi innovatsion xizmatlar filiallarning yangi rolini shakllantirmoqda.

Umuman olganda, AQSh tajribasi tijorat banklari uchun filial tarmoqlarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish samaradorlikni oshirish, mijozlar talabini to'liq qondirish va moliyaviy xavflarni kamaytirishning muhim sharti ekanini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Tijorat banklarida gibril filial modelini bosqichma-bosqich joriy etish. Bu mijozlarga bir vaqtning o'zida ham raqamli, ham an'anaviy xizmatlarni ko'rsatish imkonini beradi.

Raqamli platformalarni kengaytirish: mobil ilovalar, masofaviy identifikatsiya va sun'iy intellekt asosidagi onlayn maslahat xizmatlari mijozlarga xizmat ko'rsatishni yanada qulaylashtiradi.

Bank faoliyatini risk-menejment yondashuvi asosida tashkil etish, xususan, likvidlik xatarlarini erta aniqlash tizimini kuchaytirish.

Tijorat banklarining foiz siyosatini takomillashtirish, depozit va kredit stavkalarini muvozanatlash orqali sof foiz marjasining barqarorligini saqlab qolish.

Harakatsiz aktivlar ulushini nazorat qilish, kredit portfelining sifatini oshirish va muammoli kreditlarni qisqartirish bo'yicha kompleks choralar ishlab chiqish.

Bank sektorida raqamli xizmatlarni qo'llab-quvvatlovchi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish.

Bank filiallarining mintaqaviy qamrovini kengaytirish, ayniqsa, qishloq joylarda moliya infratuzilmasini rivojlantirishni rag'batlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizov U. va boshq. Bank ishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 640 b.
2. Alimardonov I. M. Kichik biznes sub'ektlarining kredit to'loviga layoqatligini baholash amaliyotini takomillashtirish. Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali, 2017, №2. – 6 b.
3. Abdikarimova D. Banklar garov ta'minotini baholash zarurligi va asosiy tamoyillari. – Toshkent: Moliya, 2015, №4.
4. Abdikarimova D. R. Bank kreditlari garov ta'minotini baholash amaliyotini takomillashtirish yo'llari: PhD dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 61 b.
5. Bektemirov A., Malikova D., Axmedov H. Tijorat banki faoliyati samaradorligini oshirish istiqbollari. Journal of Marketing, Business and Management (JMBM), V.2, Issue 2, May. – B.149–154.
6. Berdiyarov B. T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. I.f.d. ilmiy darajasi uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: BMA, 2020. – 17–19 b.
7. Berdiyarov B. T. Tijorat banklari foiz siyosatining likvidlikka ta'siri. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2017, №5.
8. Boboqulov T. I. O'zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari. I.f.d. ilmiy darajasi uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2008. – 13 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>